

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
MAKROIQTISODIY VA HUDUDIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC. 14/30.12.2017.1.84.01 RAQAMLI BIR MARTALIK
ILMIY KENGASH**

MAKROIQTISODIY VA HUDUDIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

RAXMATOV FERUZ KASIMOVICH

**MAHALLIYLASHTIRISH VA TARMOQLARARO KOOPERATSIYA
JARAYONLARINI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI**

**08.00.02-“Makroiqtisodiyot” va 08.00.03- “Sanoat iqtisodiyoti”
TUTASH IXTISOSLIKLARI**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025 yil

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Iqt1965 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.imrs.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Olimjonov Odil Olimovich,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Maxmudov Nosir Maxmudovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nuraliev Rustam Turgunovich,
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy Universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.14/30.12.2019.I.84.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil 26 noyabr soat 14:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Xadra mavzesi, 33 "A" uy, tel: +998 71 244-01-17, e-mail: info@imrs.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (5-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, Xadra mavzesi, 33 "A" uy, tel: +998 71 244-01-80 faks: +998 71 244-01-17, e-mail: info@imrs.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" kuni tarqatildi
(2025-yil "___" dagi raqamli reestr bayonnomasi).



T.M.Axmedov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
raisi, i.f.f.d., professor

M.M.Karimov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.f.d (PhD), dotsent

X.O.Saydaliev
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.f.d (DSc), dotsent

UDK 334.73:332.1(575.1)

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PHd)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PHd)
по экономическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of the doctor of Philosophy (PHd)
on economic sciences**

Raxmatov Feruz Qosimovich

Mahalliy lashtirish va tarmoqlararo kooperatsiya jarayonlarini kengaytirish
istiqbollari.....4

Рахматов Феруз Касимович

Перспективы расширения процессов локализации и промышленной
кооперации.....30

Raxmatov Feruz Kasimovich

Prospects for expanding localization and industrial cooperation
.....60

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published papers66

KIRISH (falsafa doktori (PHd) dissertatsiyasi anntotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Xalqaro maydonda yuz berayotgan “savdo urushlari”, iqtisodiy kon’yunkturaning nobarqarorligi, ishlab chiqarish zanjirlari va logistika tizimlaridagi uzilishlar sababli texnologik ustunlik, resurs bazasi va ta’sir doirasini kengaytirish maqsadida olib borilayotgan jarayonlar faollashgan sharoitda mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishning dolzarbligi oshib bormoqda. Mahalliyashtirish va tarmoqlararo kooperatsiya jarayonlarini maqsadli yo‘naltirib borish va rag‘batlantirish orqali milliy iqtisodiyotni rivojlantirish hamda aholi farovonligini ta’minlash borasida 2008-2024 yillarda barcha mamlakatlar tomonidan jami qariyb 68 mingta bunday choralar qo‘llanilgan¹. “2021 yilda Rimda bo‘lib o‘tgan G20 sammitidan buyon yirik 20 ta mamlakatlar tomonidan 1,85 trillion AQSh dollarilik tovarlarga ta’sir ko‘rsatadigan savdoni cheklash choralari qo‘llanilgan”².

Shu sababli, yirik xorijiy ilmiy markaz va olimlarning mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasi masalalarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar ko‘lami oshib bormoqda va ushbu masalalar keng o‘rganilmoqda. Xususan, ularda mahalliyashtirish orqali qo‘shimcha daromad manbaini shakllantirish, mahalliy xomashyo resurslaridan samarali foydalangan holda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish orqali mahalliyashtirish darajasini baholash, import o‘rnini bosish strategiyasini ishlab chiqish, mahalliyashtirishning makroiqtisodiy barqarorlikka ta’sirini aniqlash kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda ham bu borada muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida³ yirik sanoat tarmoqlari va hududiy korxonalar o‘rtasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, tarmoqlarda mahalliyashtirish va mahalliy bozorni ta’minlash darajasini oshirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida alohida qayd etilgan. Shu sababli mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligi va iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash, tashqi savdo balansi defitsitini kamaytirish va mavjud iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishda mahalliyashtirish va tarmoqlararo kooperatsiyani rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni yanada kengaytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni ishlab chiqish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni, 2024 yil 12 dekabrda “Davlat xaridlarida ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularga keng imkoniyatlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-417-son, 2025 yil 21 yanvardagi “2025 yilda aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-12-son qarorlari va sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ Global savdo xabarlar tizimi ma’lumotlari (<https://www.globaltradealert.org/>)

² G20 Trade Policy Factbook 2024, Global Trade Alert, 14.11.2024

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni (<https://lex.uz/docs/6600413>).

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqotlarda “import o‘rnini bosish”, “proteksionizm”, “mahalliyashtirish” va “kooperatsiya” masalalari qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, asosiy nazariyalar taniqli xorijiy iqtisodchi olimlardan merkantilistik nazariya namoyandalari T.Mann, A.Serra, A.de Monkreten, erkin xalqaro savdo tarafdorlari A.Smit va D.Rikadro, shuningdek, A.Gamilton, D.F.List, X.V.Zinger, R.Prebish, M.Edison, P.Bayrox, A.Xirshman va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan.

Hozirgi davrda ushbu masalalar xorijiy olimlar Joze A.Dotas-Panero⁴ – import o‘rnini bosish strategiyasini rivojlanayotgan mamlakatlarda qo‘llash, D.A.Irvin^{5 6} – import o‘rnini bosish siyosatining yuksalishi va pasayishi, F.M.Veloso^{7 8 9} – avtomobilsozlikda mahalliyashtirish, imtiyozlar, infratuzilma va institutlarning rivojlanishga ta’siri, import va texnologiyalar transferi samaradorligi, Ch.Gor¹⁰ va V.Popov¹¹ – mazkur yo‘nalishda davlat boshqaruvi masalalari, P.Krugman¹² – islohotlarni tahlil qilish uslubiyoti rivojlanishi nuqtai nazaridan o‘z ifodasini topmoqda.

O‘zbekiston iqtisodchi olimlarining ishlarida mahalliyashtirishning milliy iqtisodiyot, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, hududlarni rivojlantirish va tashqi savdo balansiga ta’siri, iqtisodiy raqobatbardoshlik nazariyasi va amaliyoti muammolari, jahon moliyaviy inqirozining salbiy ta’sirini bartaraf etishda mahalliyashtirishning o‘rni, iqtisodiy xavfsizlik va boshqa yo‘nalishlar doirasida mazkur mavzuning ayrim jihatlari ko‘rib chiqilgan (O.O.Olimjonov¹³, T.M.Axmedov¹⁴, A.Sh.Bekmurodov¹⁵,

⁴ Datas-Panero, Jose A. "Import Substitution." IMF Staff Papers, 2020, pp. 34–39.

⁵ Irwin, Douglas A. The Rise and Fall of Import Substitution. NBER Working Paper No. 27919, National Bureau of Economic Research, 2020 (<http://www.nber.org/papers/w27919>).

⁶ Ирвин, А.Д. (2002). Способствовало ли импортозамещение росту в конце XIX века? Национальное бюро экономических исследований, Кембридж, NBER Working Paper 8751. <https://www.nber.org/papers/w8751>

⁷ F.Veloso, R.Kumar, “The Automotive Supply Chain: Global Trends and Asian Perspectives”, ERD Working Paper No. 3, Asian Development Bank, 2002.

⁸ Veloso, Francisco, and Jorge Mario Soto. Incentives, Infrastructure, and Institutions: Perspectives on Industrialization and Technical Change in Late-Developing Nations. Elsevier Science Inc, 2001.

⁹ Blalock, Garrick and Veloso, Francisco M. and Veloso, Francisco M., Imports, Productivity Growth, and Supply Chain Learning. World Development, Forthcoming (<https://ssrn.com/abstract=961509>).

¹⁰ Gore, Charles. "The Rise and Fall of the Washington Consensus as a Paradigm for Developing Countries." World Development, vol. 28, no. 5, 2000, pp. 789–804.

¹¹ Попов, Владимир. «Пекинский консенсус против Вашингтонского: Азиатские ценности более конкурентоспособны, чем либерализм?» Вопросы экономики, no. 5, 2011, pp. 23–42.

¹² Krugman, Paul R. “The Fall and Rise of Development Economics.”, 1999

¹³ O.O.Olimjonov va boshqalar, “Аграр иқтисодий эркинлаштиришнинг назарий асослари”, Тошкент, 2016 йил

¹⁴ Т.М.Ахмедов, “Перспективы развития экономического сотрудничества и «зеленого» перехода (промышленная кооперация, торговля, транспорт, энергетическая и продовольственная безопасность)”, Международная конференции аналитических центров стран-участниц СНГ

¹⁵ А.Ш.Бекмуродов ва бошқалар, “Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартаф этишнинг йўллари ва чоралари”, Тошкент, 2009 йил, 56-68в.

N.M.Maxmudov¹⁶, Sh.X.Nazarov¹⁷, S.V.Chepel¹⁸, N.M.Rasulov¹⁹, H.O.Saydaliev²⁰, R.T.Nuraliev²¹, D.M.Qurbonova²², D.M.Karimova²³, B.B.Valiev²⁴).

Shuningdek, Sh.I.Mustafaqulov mahalliy lashtirish va sanoat kooperatsiyasining hududiy aspektlari²⁵, S.S.Usmonova farmasevtika sanoatida mahalliy lashtirish darajasini oshirish²⁶, J.Sh.Umurzoqov yoqilg'i-energetika sanoatida mahalliy lashtirish istiqbollari²⁷, O.Arhipova mahalliy lashtirishda davlat boshqaruvining muhim o'rni²⁸, R.S.Arziboeva mahalliy lashtirishni kreditlash masalalari²⁹, M.Q.Allayorova, U.X.Abdullaev mahalliy lashtirishda tarmoq va hudud omillari³⁰ni o'rgangan.

Mahalliy lashtirish va kooperatsiya samaradorligini baholash uslubiyotining ayrim jihatlariga mualliflar yondashuvlari mavjud, jumladan R.Ananina,

¹⁶ М.Н.Махмудов, Л.Азимова, Н.Авазов. "Ўзбекистонда макроиктисодий барқарорлик ва инвестицион фаолликни ошириш масалалари", *Iqtisodiyot va ta'lim* 1 (2021): 38-48.

¹⁷ Ш.Назаров, "Минтақавий иктисодиёт ва бошқарув", монография, Ренессанс, 2021 йил, 144-150в.

¹⁸ С.В.Чепель, "Возможности метода затраты-выпуск в оценке импортозависимости национальной экономики//Россия: тенденции и перспективы развития. 2022. №17-1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vozmozhnosti-metoda-zatraty-vypusk-v-otsenke-importozavisimosti-natsionalnoy-ekonomiki> (дата обращения: 18.08.2025).

¹⁹ Н.М.Расулов, Ф.Мадрахимов, "Шеринг иктисодиёти: Ўзига хос хусусиятлари, ривожланиш тенденциялари, афзалликлари ва амалга оширишдаги муаммолар", "Raqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali, 12 (2025), 864-875.

²⁰ В.Туракулов, Х.Сайдалиев Turakulov ва б, "The Right Sequence for Uzbekistan's Trade Integration: Should it join the WTO first or begin with EAEU membership?." *한국무역학회 학술대회* (2023): 85-101.

²¹ Р.Т.Нуралиев. (2025). Давлат иштирокидаги корхоналарда фаолият барқарорлигини таъминлашда рискларни бошқариш тизимининг аҳамияти. Решение социальных проблем в управлении и экономике, 4(4), 93–96. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/sspme/article/view/79852>

²² Д.М.Курбанова, "Формирование промышленных кластеров в национальной экономике (на примере Узбекистана)", *Торговля в XXI веке.*, 2014 год, 107-113.

²³ Д.М.Каримова, *Методология и критерии оценки бедности: зарубежная и отечественная практика //Экономика: анализы и прогнозы. – 2021. – №. 1. – С. 5-11.*

²⁴ Б.Б.Валиев, *Перспектива привлечения иностранных инвестиций в развитие машиностроения Узбекистана //Актуальные проблемы экономики и управления на предприятиях машиностроения, нефтяной и газовой промышленности в условиях инновационно-ориентированной экономики. – 2015. – Т. 1. – С. 124-130.*

²⁵ Ш.И.Мустафақулов, "Худудларда маҳаллийлаштириш дастурлари: татбиқ этишнинг асосий жиҳатлари ва кутиладиган натижалар", *Nordic Press*, 2024. – Т. 1. – №. 0001

²⁶ С.С.Усмонова, "Ўзбекистон Республикаси фармацевтика саноати корхоналарида маҳаллийлаштириш жараёнларини такомиллаштириш", иктисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси Автореферати, Тошкент 2024 йил, 8 varaқ.

²⁷ Ж.Ш.Умурзоқов, "Ёқилг'и-энергетика саноатида импорт ўрнини босишга йўналтирилган инвестиция лойиҳалари самарадорлиги", *JOURNAL OF ENGINEERING SCIENCES*, 2024, Т. 7. – №. 5. – С. 1-11.

²⁸ О.Архипова, "Тармоқлараро кооперация ва ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш мамлакат иктисодиётини жадал ривожлантиришнинг энг муҳим шартидир", *Макроиктисодий ва худудий тадқиқотлар институти* (<https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts?localization>).

²⁹ Р.С.Арзибоева, "Саноат ишлаб чиқаришини маҳаллийлаштиришда тижорат банклари маблағларидан самарали фойдаланишнинг назарий ва услубий жиҳатлари", *International Journal of Education, Social Science & Humanities* 12.5 (2024): 202-211.

³⁰ М.Қ.Аллаёрова, У.Х.Абдуллаев "Основы развития процесса локализации в сфере производства в Республике Узбекистан", «Молодой учёный» № 3 (83), Февраль, 2015 г.

V.Kuimov³¹ – kooperatsiyada o‘zaro ta’sir va tarmoq effekti, V.Ryapuxina³² va O.Malashkina³³ – innovatsiyalarni mahalliyashtirishni baholash, V.Senkov va D.Domnichev³⁴ – korxonaning iqtisodiy xavfsizligi, I.Titkov³⁵ – harbiy-sanoat kompleksi va xususiy korxonalar kooperatsiyasi, V.Nevmivako³⁶ – yirik va kichik biznes kooperatsiyasi mexanizmlari, V.Pavlov³⁷ – komponentlar va sanoat xizmatlarini mahalliyashtirish imkoniyatlarini baholash, S.Novikova^{38,39}, Ye.Shetinina va boshqalar⁴⁰ – kooperatsiya va raqobat muhiti sifatini baholash, B.J.Xakimov⁴¹ – mahalliyashtirish omilining korxonaga foydasini oshirishga ta’siri, Sh.S.Egamberdiev⁴² iqtisodiy o‘shishda mahalliyashtirishning roli va ahamiyati masalalarini tahlil qilgan.

Biroq, yuqorida nomlari keltirilgan ilmiy ishlarda mahalliyashtirish va tarmoqlararo kooperatsiyani tashkil etishning ilmiy-uslubiy asoslarini tahlil qilish, mazkur jarayonlarning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’sirini baholash va rivojlanish istiqbollari aniqlash, raqamli texnologiyalarni qo‘llash istiqbollari belgilash, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishning yangi shakllarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini aniqlash kabi o‘ta dolzarb muammolar yetarli darajada tadqiq qilinmagan. Aynan shu holatlar mazkur dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

³¹ Ананина Р.Ф., Куимов В.В. Организация совместных закупок как формы услуг в кооперационно-сетевых взаимодействиях. М.:Первое экономическое издательство, 2020. – 244 с. – ISBN: 978-5-91292-323-4 – doi: 10.18334/9785912923234

³² Ряпухина, В. Н. Инструментарий оценки степени локализации инновационной деятельности в регионе / В. Н. Ряпухина // Креативная экономика. – 2018. – Т. 12, № 7. – С. 953-964. – DOI 10.18334/ce.12.7.39258

³³ Малашкина, О. Ф. Межфирменная кооперация как стратегический вектор инновационного развития высокотехнологичных компаний Центральной Азии / О. Ф. Малашкина // Экономика Центральной Азии. – 2018. – Т. 2, № 3. – С. 109-118. – DOI 10.18334/asia.2.3.111558

³⁴ Сенков, В. А. Локализация производства как ключевой механизм реализации импортозамещения в целях обеспечения экономической безопасности предприятия / В. А. Сенков, Д. Ю. Домничев // Экономическая безопасность. – 2023. – Т. 6, № 1. – С. 413-428. – DOI 10.18334/ecsec.6.1.117294

³⁵ Титков, И. А. Время экономических перемен: межфирменная кооперация военно-промышленного комплекса и гражданских предприятий различных форм собственности / И. А. Титков // Экономика и социум: современные модели развития. – 2020. – Т. 10, № 4. – С. 409-427. – DOI 10.18334/ecsoc.10.4.111819

³⁶ Невмывако, В. П. Промышленно-технологическая кооперация крупного бизнеса и структур малого и среднего предпринимательства: опыт РФ и зарубежных стран в сфере технологического импортозамещения / В. П. Невмывако // Экономика и социум: современные модели развития. – 2021. – Т. 11, № 2. – С. 169-202. – DOI 10.18334/ecsoc.11.2.112107

³⁷ Павлов, В. В. Расширение участия стран Африки в международной промышленной кооперации / В. В. Павлов, А. Л. Сапунцов // Экономика, предпринимательство и право. – 2020. – Т. 10, № 12. – С. 3109-3120. – DOI 10.18334/ep.10.12.111506

³⁸ Новикова, С. И. Партнерская среда в системе кооперационно-сетевых взаимодействий, способы ее оценки / С. И. Новикова // Экономика, предпринимательство и право. – 2019. – Т. 9, № 4. – С. 463-480. – DOI 10.18334/ep.9.4.41459

³⁹ Новикова, С. И. Оценка внутренней и конкурентной среды организации в рамках функционально-средового подхода кооперационно-сетевых взаимодействий методом бенчмаркинга / С. И. Новикова // Креативная экономика. – 2019. – Т. 13, № 9. – С. 1749-1766. – DOI 10.18334/ce.13.9.40989

⁴⁰ Методика оценки конкурентоспособности промышленного предприятия в условиях реализации политики импортозамещения / Е. Д. Щетинина, М. С. Старикова, Т. А. Дубровина, Я. В. Черкашина // Экономика, предпринимательство и право. – 2024. – Т. 14, № 2. – С. 257-276. – DOI 10.18334/ep.14.2.120504

⁴¹ Б.Ж.Хакимов, И.Х.Чориев, Н.Н.Мавлонов “Фойдани оширишда махаллийлаштириш омилининг таъсири”, “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, 2014 йил

⁴² Ш.С.Эгамберидиев, “Иқтисодий ўсиш жараёнида ишлаб чиқаришни махаллийлаштиришнинг роли ва аҳамияти”, “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, 2016 йил.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar institutining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq “Sanoat tarmoqlarining rivojlanishini samaradorligini kompleks baholash” mavzusi bilan bog'liq holda bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda mahalliyashtirishni kengaytirish va tarmoqlararo kooperatsiya jarayonlarining samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

mahalliyashtirish va tarmoqlararo kooperatsiya jarayonlarini isloh qilishdagi ilmiy-nazariy yondashuvlarni tahlil qilish va ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini aniqlash;

mahalliyashtirish va tarmoqlararo kooperatsiyani tashkil etishning me'yoriy asoslarini takomillashtirish;

xorijiy davlatlarning mahalliyashtirish va tarmoqlararo kooperatsiya bo'yicha tajribalarini tahlil qilish va O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkinligini baholash;

O'zbekistonda mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari va ushbu jarayonlarning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini baholash;

sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rnini va ularni qo'llash istiqbollari belgilash;

kooperatsiyani kengaytirish va yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishda mahalliyashtirish jarayonlarini tashkil qilish uslubini ishlab chiqish;

mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasini tartibga solish bo'yicha tavsiyalar va rivojlantirishning prognoz parametrlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti: O'zbekiston Respublikasida mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiya jarayonlarining makroiqtisodiy va tarmoqlararo jihatlari.

Tadqiqotning predmeti: Mahalliyashtirish va tarmoqlararo kooperatsiyani rivojlantirishni tartibga solishda vujudga kelayotgan iqtisodiy munosabatlar.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanilgan: retropektiv (tarixiy) yondashish, empirik tadqiqot, ilmiy kuzatish va qiyoslash, ekonometrik tahlil (*Fixed Effects va Generalized Method of Moments modellari, Xausman testi*), tahlil va sintez, guruhlash, taqqoslash hamda tizimli yondashuv usullari.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiya loyihalari samaradorligini baholash uslubiyoti “mahalliy va import buyurtmaning moliyaviy qiymati”, “ehtiyot zaxira saqlash xarajatlari”, “o'zlashtirish xarajatlari” kabi ko'rsatkichlardan foydalangan holda takomillashtirilgan;

tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish asosida avtomobilsozlikda 763 turdagi (*ayrim modellarning cho‘yan va po‘lat butlovchi qismlari, chiroqlar, shinalar, shovqinga qarshi va interer qismlari va b.*) hamda tog‘-kon sanoatida 117 turdagi (*shaxta vagonlari, konveer tasmasi, kon texnikalari uchun filtrlar va radiatorlar, moylash mahsulotlari va b.*) yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish imkoniyatlari borligi asoslab berilgan;

mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘lab-quvvatlash maqsadida, ularga davlat xaridlarida ishtirok etishda ustuvorlik berish, “ofteyk shartnoma”lar tuzish, “B2B” va “B2C” formatida “marketpleys” shaklidagi erkin savdo maydonchasini tashkil etish, yirik investitsiya loyihalarida mahalliyashtirish majburiyatlarini joriy qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasi va import o‘rnini bosuvchi mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hisobiga 2030 yilgacha yirik investitsiya loyihalari doirasida “mahalliy kontent” ulushini 42 foizga yoki 31,2 mlrd. dollarga yetkazishning prognoz parametrlari hisoblangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

tog‘-kon sanoati va avtomobilsozlik tarmoqlarida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishning “shatakka olish”, “o‘zak tashkilot atrofida klaster” usulida rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

O‘zbekistonda mahalliyashtirishning o‘ziga xos jihatlari va tendensiyalari hamda samaradorligi aniqlangan;

sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishning samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarni qo‘llashning ustuvor yo‘nalishlari asoslab berilgan;

tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish va tashqi iqtisodiy faoliyat sub’ektlarining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

mahalliyashtirishni kengaytirishni 2030 yilgacha rivojlantirishning prognozlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishning uslubiy asos va yondashuvlarini takomillashtirishda namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati uning natijalari O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi faoliyatida, mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan milliy va tarmoq dasturlarini ishlab chiqish jarayonida qo‘llash imkoniyati bilan belgilanadi. Shuningdek, tadqiqotda taklif etilgan mahalliyashtirish va kooperatsiya loyihalarining samaradorligini baholash uslubiyoti xo‘jalik birlashmalari va ishlab chiqarish korxonalarini uchun amaliy qo‘llanma vazifasini bajaradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi amalga oshirilgan tahlillarda statistik ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, ishlab chiqilgan uslubiyot, taklif va tavsiyalarining amaliyotda aprotatsiyadan o‘tkazilgani va mutasaddi tashkilotlarda amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi O‘zbekiston Respublikasida mahalliy lashtirish va sanoat kooperatsiyasini samaradorligini aniqlash, kelajak istiqbollarini asoslash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar va amaliy takliflar asosida quyidagilar joriy etilgan:

mahalliy lashtirish va sanoat kooperatsiya loyihalari samaradorligini baholash uslubiyoti “O‘zavtosanoat” AJ korxonalarida loyihalar samaradorligini aniqlashda foydalanilgan (“O‘zavtosanoat” AJning 2024 yil 10 fevraldagi 21/06-25-0238 son xati). Mazkur uslubiyot asosida iqtisodiy samarasi o‘rganilgan 50 ta butlovchi qismlarini mahalliy lashtirish hisobiga Onix va Treker modellari faralari va chiroqlarini xarid narxlarini 17 foizga hamda cho‘yan butlovchi qismlari narxlarini 5 foizga, Treker, Damas va Labo modellari shinalari narxlarini 9-39 foizga, Treker modeli tom qismi narxini 48 foizga tushirishga erishiladi. Natijada, 2025 yilda 26 ta mahalliy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini o‘rnatish, 98,9 mln.dollarlik yangi detallarni mahalliy lashtirish va tannarxni 2,5 trln.so‘mga qisqartirish rejalashtirilgan;

tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar Respublika tarmoqlararo sanoat ko‘rgazmasini tashkil etishda foydalanilgan (*Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024 yil 24 dekabrda 02-20-01569 – son xati*). Mazkur ko‘rgazmada 5 254 ta mahalliy korxonalar qatnashib, 2 073 turdagi yangi mahalliy lashtirilgan mahsulotlar namoyish etilgan, 30,4 trln. so‘mlik xarid shartnomalari imzolagan. Xususan, avtomobilsozlikda 79 ta korxonalar bilan 411 mln. dollarlik 763 tur yangi detallarni o‘zlashtirish, energetikada yirik “yashil” loyihalarda “mahalliy kontent” ulushini 25 foizdan 31 foizgacha yetkazish, elektrotexnikada mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 23 foizga oshirib, 6,7 trln. so‘mga yetkazish, tog‘-kon sanoatida kooperatsiya asosida 47 ta hududiy korxonani “shatakka olish” orqali 3,1 trln. so‘mlik 117 tur mahsulotni o‘zlashtirishga kelishilgan;

davlat xaridlarida mahalliy ishlab chiqaruvchilarga ustunlik berish bo‘yicha taklif O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 3 dekabrda PQ-417-son qarori loyihasini Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqishda foydalanilgan (*Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025 yil 5 fevralda 02/25-1-2528 – son xati*). Mazkur takliflar asosida hududlar va tovarlar kesimida ishlab chiqaruvchilar to‘g‘risidagi sanoat xaritasini ishlab chiqish, davlat buyurtmachilari va ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida o‘zaro kooperatsiya aloqalarini o‘rnatish va ofteyk shartnomalar tuzish imkoniyati yaratilgan, shuningdek «B2B» va «B2C» formatida «marketpleys» shaklidagi erkin savdo maydonchasi tashkil etilgan, davlat buyurtmachilari tomonidan ustuvor ravishda mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilish mexanizmlari joriy qilingan;

ishlab chiqilgan prognoz parametrlari 2030 yilga qadar mahalliy lashtirish va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (*Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024 yil 24 dekabrda 02-20-01569 – son xati*). Ularni qo‘llash natijasida, 75,2 mlrd. dollarlik investitsiya loyihalari doirasida 2025 yilda “mahalliy kontent” hajmini 6,2 mlrd. dollar yoki 32 foizga yetkazish, 1 743 ta mahalliy lashtirish loyihasi bo‘yicha 5,8 mlrd. dollarlik import o‘rnini bosuvchi yangi mahalliy lashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish, 786 ta hududiy korxonani “shatakka olish” hisobiga 825 mln. dollarlik yangi tur mahsulotlar ishlab chiqarish, yillik ishlab chiqarish hajmi 42 trln. so‘mlik 431 ta yangi quvvatlar yaratilishi ta‘minlanadi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan. Korxonalar va tarmoq darajasida mahalliy lashtirish va sanoat kooperatsiya loyihalari samaradorligini baholash uslubiyoti "O'zavtomotors" da aprobatsiyadan o'tkazildi va avtomobilsozlik korxonalarida loyihalar samaradorligini aniqlashda qo'llanilmoqda.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 17 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta ilmiy maqola, 4 ta ilmiy tezis, shu jumladan, 4 tasi xorijiy jurnal va anjumanlar to'plamlarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi tarkiban kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Tadqiqot ishining matni 136 betdan iborat bo'lib, o'z ichiga 34 ta jadval va 10 ta rasm, shu jumladan, 5 ta infografika, 5 ta grafikni qamrab olgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, usullari, ob’ekti hamda predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlari hamda dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga mosligi, mavzuning o’rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiliklari va amaliy ahamiyati, natijalarining ishonchliligi, joriy qilinishi va aprobatsiyasi, mavzu doirasida chop etilgan ilmiy ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to’g’risida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mahalliyashtirish va tarmoqlararo kooperatsiya jarayonlarining ilmiy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida mahalliyashtirish va tarmoqlararo kooperatsiya jarayonlarining barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashdagi o’rni, mazkur jarayonlarning makroiqtisodiy ko’rsatkichlarga ta’siri, xorijiy davlatlarda mahalliyashtirish va tarmoqlararo kooperatsiyani rivojlantirishning o’ziga xos xususiyatlari o’rganilib, ilmiy xulosalar chiqarilgan.

Qayd etilishicha, mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishda nazariy yondoshuvlar XV asrdan buyon merkantilizm, klassik iqtisodiyot, proteksionizm kabi turli iqtisodiy maktablar namoyandalari tomonidan rivojlantirib kelinmoqda. Ushbu iqtisodiy nazariyalarda ko’zda tutilgan usul va tavsiyalar AQSh, Buyuk Britaniya, Avstriya, Fransiya, Shvesiya, Gollandiya, Lotin Amerikasi, Rossiya kabi turli mamlakatlarda muayyan vaqt davomida amaliyotga joriy etilgan.

Muallifning fikricha, proteksionizm (import o’rnini bosish, mahalliyashtirish) va erkin iqtisod nazariyalari amaliyotda sof ko’rinishda birorta mamlakatda uchramaydi. Har bir iqtisodiy siyosatni mamlakatda zarur shart-sharoitlar mavjud bo’lgan hollarda, ko’p omilli xalqaro qiyoslashlar asosida aniq faoliyat turlariga nisbatan qo’llash maqsadga muvofiq. Ya’ni, bitta davlatda bir vaqtning o’zida proteksionizm va erkinlashtirish siyosati olib borilishi amaliyotda tabiiy holat⁴³.

Xalqaro raqobatni to’liq inkor qilish va izolyatsiyalanib rivojlanish, mamlakatni strategik istiqbollardan mahrum qiladi. Shu bilan birga, “erkin savdo qonuniyatlariga to’liq ishonib qolish ham xato bo’ladi, chunki xalqaro tajribada kelishuvlardan chekinish holatlari kam emas, ayniqsa, jahon iqtisodiyotida yetakchi o’rinlarni egallab turgan davlatlarning tashqi siyosatida bunday holatlar ko’p uchraydi”⁴⁴.

⁴³ Ф.Рахматов, “Махаллийлаштириш ва тармоқлараро кооперация: шаклланиши, ривожланиши ва мазмуни”, “Иқтисодий шарҳ”, 2022 йил, 7-сон, 83-88 (<https://review.uz/journals/view/7-2022>).

⁴⁴ Смагулова С.М., Епифанов А.В. ДЕГЛОБАЛИЗАЦИЯ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ: ПРИЧИНЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ // Вестник Алтайской академии экономики и права. – 2024. – № 6-1. – С. 160-166 (<https://vael.ru/ru/article/view?id=3513> (дата обращения: 06.12.2024)).

Muallifning fikricha, mahalliyashtirish va erkin xalqaro savdo nazariyalarini ikkalasining ham o'ziga xos ustunliklari mavjud bo'lib, iqtisodiyotni isloh qilishda qaysi tashqi iqtisodiy siyosatni yuritishni:

erkin xalqaro savdo siyosati - rivojlanayotgan davlatlarda sanoatning raqobat rivojlangan, xalqaro ustunliklari mavjud sohalarda;

mahalliyashtirish siyosati - iqtisodiyotning istiqboldagi rivojlanishi uchun muhim bo'lgan o'sish nuqtalari, "drayver" va unikal xomashyo resurslari mavjud sohalar, iqtisodiy xavfsizlik bilan bog'liq mahsulot turlari va tarmoqlarda qo'llash tavsiya etiladi.

Mahalliyashtirishning iqtisodiy samarasi asosiy mezon bo'lishi zarurligi ta'kidlangan. Shu bilan birga, ayrim hollarda, iqtisodiy xavfsizlik masalalari va ishlab chiqarish zanjirining keyingi bosqichlarining uzluksiz faoliyati va raqobatbardoshligini ta'minlash zarurati ayrim mahsulotlarni qisqa muddatli iqtisodiy samarasiga qaramasdan mahalliyashtirishni oqlashi mumkin. Bunday hollarda mahalliyashtirishning bilvosita samarasi aniq hisob-kitoblar asosida asoslanishi zarurligi asoslangan.

Mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasining iqtisodiyotga ta'sirini baholash uchun tadqiqotda yalpi iste'molda mahalliy mahsulotlar ulushini ko'rsatuvchi maxsus makroiqtisodiy indikordan foydalanilgan. U YaIMning xarajatlar usuli, tovar bozori hajmi va ichki bozorning mahalliy mahsulotlar bilan ta'minlanganlik darajasi kabi ko'rsatkichlar asosida hisoblanib, mahalliyashtirishning iqtisodiy o'sish va sanoat rivojiga bevosita ta'sirini aniqlash imkonini bergan.

Mazkur indikator asosida 1991- 2023 yillarda turli daromad guruhlariga mansub mamlakatlar iqtisodiyotining mahalliyashtirish darajasi dinamikasi tahlil qilingan. Jahon bo'yicha iqtisodiyotni mahalliyashtirish darajasi 1990-yillar oxirida 76–77 foiz atrofida bo'lgan. Keyinchalik, 2008 yilgacha biroz pasayib, 69,5 foizga tushgan. Bunga Jahon moliyaviy inqirozi, xalqaro ta'minot zanjirlarining rivojlanishi va transmilliy kompaniyalarning global ishlab chiqarishni kengaytirishi sabab bo'lgan. 2010 yildan keyin bu ko'rsatkich yana o'sib, 2023 yilga kelib 71,1 foizga yetdi. Bu, pandemiyadan keyin mahalliy ta'minotga qaytish va iqtisodiy xavfsizlik masalalari bilan bog'liq.

Tahlillar daromad darajasi va iqtisodiyotning mahalliyashtirish darajasi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi. Daromad darajasi yuqori va o'rtadan yuqori bo'lgan mamlakatlarda mazkur ko'rsatkich barqaror ravishda 75–80 foizdan yuqori bo'lib, bu holat rivojlangan industrial baza, ichki talab va texnologik mustaqillik bilan izohlanadi. Xususan, AQShda bu ko'rsatkich o'rtacha 86 foizni, Yaponiya va Xitoyda esa 81 foizni tashkil etadi. Ushbu mamlakatlar mahalliy sanoatni faol himoyalaydilar, ya'ni proteksionizmning yetakchilari rivojlangan mamlakatlardir. Daromad darajasi o'rta va past bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiyotning mahalliyashtirish darajasi so'nggi o'n yillikda mos ravishda 0,6 va 2,5 foiz bandga past bo'lgan.

Korxonalar va tarmoqlarda amaliyotda qo'llash uchun mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasining samaradorligini baholash uslubiyoti "mahalliy va import mahsulotlar narxini solishtirish", "mahalliy va import buyurtmaning moliyaviy qiymati", "ehtiyot zaxira saqlash xarajatlari", "mahalliy mahsulotni o'zlashtirish xarajatlari", "quvvatlardan foydalanishning muqobil imkoniyati", "ehtimoliy yo'qotiladigan foyda", "mahalliyashtirish hisobiga qo'shimcha olinadigan foyda" kabi ko'rsatkichlardan foydalangan holda takomillashtirildi.

Xususan, mahalliyashtirishning samarasini baholash tenglamasiga buyurtmaning moliyaviy qiymati (*avvaldan to'lov, akkreditiv va aylanma mablag' qiymati*) va ehtiyot zaxira saqlash xarajatlari (*qo'shimcha ombor, saqlash xarajatlari, aylanma mablag' va b.*) kabi qo'shimcha ko'rsatkichlar kiritish orqali solishtirma tahlillar qamrovi va aniqlik darajasi oshirilgan.

$$PL + EL + AIL / Q_{cont} \leq PI + EI + SSI + AII / Q_{cont}$$

Bunda, PL – mahalliyashtirilgan bir birlik mahalliy mahsulot narxi, PI – bir birlik import mahsulot narxi, EL – bir birlik mahalliy mahsulotni mahalliyashtirish va yetkazib berish xarajatlari, EI – bir birlik import mahsulotni olib kelish bilan bog'liq xarajatlar, AIL – mahalliy buyurtmaning moliyaviy qiymati, AII – import buyurtmasining moliyaviy qiymati, SSI – ehtiyot zaxira saqlash xarajatlari.

Sanoat kooperatsiyasining samarasini baholash tenglamasi hamkor korxonaga ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash turlarining qiymatini inobatga oladigan qo'shimcha ko'rsatkich kiritish orqali solishtirma tahlillar qamrovi va aniqlik darajasi oshirilgan.

$$PL_{coop} + EL_{coop} + AIL / Q_{cont} \leq PI + EI + SSI + AII / Q_{cont}$$

Bunda, EL_{coop} – bir birlik mahsulotga to'g'ri keladigan mahalliy mahsulotni o'zlashtirish bilan bog'liq xarajatlar.

$$EL_{coop} = EL + \frac{I}{FPV} + \frac{CI_{rm}}{IPV} + \frac{E_{lp}}{YePV} + \frac{SE}{SPV} + \frac{OS}{OPV}$$

Bunda, I – hamkor korxonaga ajratiladigan moliyaviy resurslarning bevosita yoki muqobil qiymati, FPV – mablag' ajratilgan davrda ishlab chiqariladigan mahsulot soni, CI_{rm} – import xomashyo va butlovchi qismlarni olib kelish xarajatlari, IPV – import xomashyo va butlovchi qismlardan ishlab chiqariladigan mahsulot soni, E_{lp} – mahalliyashtirish uchun taqdim qilingan uskuna va osnastkalar qiymati, YePV – taqdim etilgan uskuna va osnastkalarining foydalanish muddati davomida ishlab chiqariladigan mahsulotlarning umumiy soni, SE – muhandislik xizmatlari qiymati (sarflangan vaqtda to'langan ish haqi yoki jalb qilingan muhandislarning xizmat haqi), SPV – hamkorlik doirasida xarid qilishini mo'ljallangan mahalliyashtirilgan mahsulot soni, OS – boshqa ko'mak turlari, OPV – boshqa ko'mak doirasida ishlab chiqariladigan mahsulot soni.

Dissertatsiyada Markaziy Osiyo mamlakatlarida (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston) 1995-2024 yillarda mahalliy lashtirish siyosatining iqtisodiy o‘shiga ta’siri FE (Fixed Effects) va GMM (Generalized Method of Moments) modellari asosida ekonometrik tahlil qilingan.

Ekonometrik tahlillarni umumlashtirib quyidagi xulosalarga kelingan:

– fiksirlangan samaralar (FE) modelida Markaziy Osiyo mamlakatlarida mahalliy lashtirishni kengaytirish YaIM o‘shiga ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta’sir ko‘rsatishi, inflyatsiyaning o‘shishi esa cheklovchi omil sifatida namoyon bo‘lishi aniqlangan;

– dinamik GMM modelida sanoatni mahalliy lashtirish va sanoat kooperatsiyasi orqali rivojlantirishning iqtisodiy o‘shiga ijobiy ta’sir saqlanib qoladi, tarif siyosati esa tashqi iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishda statistik ahamiyat kasb eta boshlaydi;

– Markaziy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy o‘shini jadallashtirish uchun iqtisodiy integratsiya va xalqaro sanoat kooperatsiya aloqalarini rivojlantirishning ahamiyati yuqori, mahalliy lashtirish siyosatini mintaqaviy integratsiya bilan birga olib borilishi ijobiy natijalarni yanada kuchaytiradi.

2008-2023 yillarda turli davlatlar tomonidan qo‘llanilgan 65 mingdan ortiq choralar Global savdo xabarlar tizimida ro‘yxatga olingan. Shundan 80 foizdan ortig‘i savdo sharoitlarini og‘irlashtiruvchi, 16 foizga yaqini xalqaro savdoni yengillashtiruvchi sifatida tavsiflangan. Jahon miqyosida oxirgi to‘rt yilda bunday choralarni qo‘llash darajasi keskin oshgan (1-rasmga qarang).



1-rasm. Xalqaro miqyosda qo‘llanilgan choralar tahlili⁴⁵

Mahalliy sanoatni qo‘llab quvvatlovchi proteksionizm choralarining 55 foizi subsidiyalar ko‘rinishida (eksport subsidiyalarini inobatga olmaganda), qariyb 17 foizi eksportni qo‘llab quvvatlash choralari (shu jumladan eksport subsidiyasi), 8 foizi savdo bilan bog‘liq investitsiya choralari, 7 foizi tarif choralari, 5 foizi notarif choralarni tashkil qilgan. Bunda, Germaniya, Fransiya, Italiya, Birlashgan Qirollik, Xitoy, Yaponiya, AQSh va Ispaniya eng ko‘p (har biri 14 mingdan ortiq) proteksion choralar qo‘llagan.

⁴⁵ Muallif tomonidan Global savdo xabarlar tizimi ma’limotlari asosida tayyorlangan.

Erkinlashtirish bilan bog‘liq choralarning 50 foizi tariflarni pasaytirish bilan bog‘liq bo‘lsa, 13 foizi kvota va litsenziyalash, 12 foizi eksportni qo‘llab quvvatlash choralari, 7 foizi to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni amalga oshirish sharoitlarini yengillashtirish masalalarini o‘z ichiga oladi.

2009-2023 yillarda qo‘llanilgan choralarning 603 tasi O‘zbekiston sub’ektlariga nisbatan savdo va investitsiyalar shartlarini yengillashtirgan bo‘lsa, 1 825 tasi savdo shartlarini qiyinlashishiga olib kelgan. Mos davrda O‘zbekiston tomonidan jami 44 ta proteksionizm va 27 ta erkinlashtirish choralari amalga oshirilgan. Asosan, qayta ishlangan meva va dukkaklilar, oziq-ovqat, rezina mahsulotlari, noorganik o‘g‘itlar va meva-sabzavotlar savdosi erkinlashtirilgan bo‘lsa, avtomobillar, go’sht mahsulotlari, tayyor oziq-ovqat, metall va po‘lat mahsulotlari bozorlari himoyalangan (1.1-jadvalga qarang).

1.1-jadval.

O‘zbekiston va uning asosiy iqtisodiy hamkor davlatlari tomonidan 2008-2023 yillarda qo‘llanilgan proteksionizm va erkinlashtirish choralarning qiyoslama tahlili⁴⁶

Choralar soni (ta’sir doirasi)	Barcha davlatlar	Rossiya	Xitoy	Turkiya	Qozog‘iston	Qirg‘iziston	Afg‘oniston	Janubiy Koreya
Savdo hamkorlari qo‘llagan choralar	2 428	503	538	71	82	11	-	31
Proteksionizm	1 825 (55,1)	385 (70,9)	442 (92,3)	54 (2,63)	61 (2,0)	7 (0,61)	-	19 (0,5)
Liberallashtirish	603 (35,9)	118 (35,6)	96 (66,7)	17 (1,61)	21 (0,71)	4 (0,12)	-	12 (0,13)
O‘zbekiston choralari	71	23	31	18	21	10	1	24
Proteksionizm	44 (5,13)	10 (0,94)	17 (3,02)	8 (0,42)	11 (1,34)	6 (0,13)	-	17 (1,54)
Liberallashtirish	27 (6,32)	13 (1,61)	14 (3,0)	10 (0,50)	10 (0,90)	4 (0,17)	1 (0,02)	7 (1,36)

Ilmiy ish doirasida Saudiya Arabistoni, Vengriya, Janubiy Koreya, Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Eron va Rossiya kabi mamlakatlarning mahalliyashtirish va kooperatsiyani rivojlantirishdagi tajribasi, davlatning o‘rni va ular tomonidan qo‘llanilayotgan choralar samaradorligi va ularning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’siri tahlil qilingan va ijobiy amaliyotlarni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Xususan, Saudiya Arabistoni, Rossiya va Eron strategik muhim sohalarda (energetika, qishloq xo‘jaligi, mudofaa) importga bog‘liqlikni kamaytirish, zamonaviy texnologiyalar va investitsiyalardan foydalanish uchun xorijiy sheriklar bilan hamkorlikni rivojlantirishga asosiy e’tiborni qaratish;

⁴⁶ Muallif tomonidan Global savdo xabarlar tizimi ma’limotlari asosida tayyorlangan.

Vengriya maxsus iqtisodiy zonalar orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rag'batlantirish, xalqaro ta'minot zanjirlariga qo'shilishga urg'u berish;

Janubiy Koreya, Germaniya va Yaponiya yuqori texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish, ilmiy-tadqiqotlar dasturlari va yuqori texnologiyali tarmoqlarni yaratish orqali mahalliyashtirishni faol qo'llab-quvvatlash orqali rivojlanish;

Xitoy va Hindiston import o'rnini bosish strategiyasi doirasida mahalliy quvvatlarni jadal rivojlantirish orqali mahalliy sanoat salohiyatini oshirish hamda ilm-fan va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, shu jumladan axborot texnologiyalari, elektronika va avtomobilsozlik kabi muhim sohalar uchun kuchli ishlab chiqarish bazalarini yaratish tajribalari O'zbekistonda mavjud tizimni takomillashtirishda qo'l kelishi ta'kidlangan.

Xorijiy mamlakatlarning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili ham mahalliyashtirishning iqtisodiyotga ijobiy ta'sirini tasdiqladi. Xususan, iqtisodiyotning mahalliyashtirish darajasini oshirish:

– iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtiradi (Vengriya sanoat o'sish sur'atlari 1,4 foizga tezlashgan, Buyuk Britaniyaning iqtisodiy o'sish sur'ati o'rta hisobda Fransiya va Gollandiyalikidan 0,37-0,56 foizga yuqoriroq bo'lgan);

– eksport tarkibida yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini oshirish (Germaniyada 73%, Koreyada 75%, Xitoyda 60%) orqali savdo balansini yaxshilaydi, global raqobatbardoshligini oshirib, innovatsion rivojlanishni jadallashtiradi;

– valyuta sarfini kamaytirish orqali importga bog'liqlikni pasaytiradi (AQSh, Yaponiya, Xitoy, Hindistonda 75 foizdan yuqori), milliy valyutaning barqarorligi va tashqi shoklar ta'sirlarga nisbatan bardoshlilikni oshiradi;

– ish o'rinlari yaratishni rag'batlantiradi, ayniqsa, yangi quvvatlar yaratish, qayta ishlash, yig'ish, logistika va xizmat ko'rsatish sohalarida. Bu esa ishsizlik darajasini pasaytirish va mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Mahalliyashtirish va tarmoqlararo kooperatsiyani rivojlantirishning hozirgi holati va omillari”** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekistonda mahalliyashtirish jarayonlari va ularning samaradorligi, mahalliyashtirish va tarmoqlararo kooperatsiyani tashkil etishning o'ziga xos jihatlari hamda tarmoqlararo kooperatsiyani tashkil etish mexanizmlari tahlil qilinib, tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mahalliyashtirishni rivojlantirish bosqichlarini tahlil qilib, iqtisodiyot rivojlanib borishi bilan asosiy yo'nalishlar va mexanizmlar o'zgarishi va moslashtirib borish tendensiyalari yuqoridagi jadvalda keltirilgan (1.2-jadvalga qarang).

O'zbekistonda mahalliyashtirish sodda oziq-ovqat va iste'mol tovarlaridan boshlanib, hozirda murakkab yirik o'lchamli uskuna va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tmoqda. Ushbu jarayonlar nazariy jihatdan 6 ta bosqichga (vujudga kelish, shakllanish, rivojlanish, Jahon moliyaviy inqirozining salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha iqtisodiy siyosat davri, kengaytirish va tashqi bozorlarga chiqish, bozor mexanizmlarini keng qo'llash va jadal rivojlanish) bo'lib tahlil qilinib, yuqori samara bergan usullar va salohiyati to'la ro'yobga chiqmagan choralar aniqlangan. Xususan:

Mahalliyashtirish va tarmoqlararo kooperatsiya jarayonlarining shakllanishi va rivojlanishi tendensiyalari⁴⁷

	Asosiy tendensiyalar (yo‘nalishlar bo‘yicha urg‘u o‘zgarishi)	
	avvalgi bosqichlarda	keyingi bosqichlarda
Yondoshuv	Individual korxonalar yoki mahsulot	Umumiy shartlar, qo‘llab-quvvatlash choralari, imtiyoz va yengilliklar
Boshqaruv	Har bir korxonalar va mahsulot turi bo‘yicha “qo‘lda boshqarish” va nazorat qilish	Bozor mexanizmlari asosida yo‘naltirish va rag‘batlantirish, monitoring qilish
Instrumentlari	Davlat xaridlari Moliyalashtirishda ko‘maklashish Soliq va bojxona imtiyozlari	Tarif va notarif usullarda himoyalash Buyurtmalar portfelini shakllantirishda ko‘maklashish Mahsulotlar dizaynini zamonaviy talablar darajasiga yetkazish Sifatni boshqarish tizimini tatbiq etishda ko‘maklashish Soliq va bojxona imtiyozlari Mahalliy mahsulotlarni subsidiyalash
Shakllantirish	Tadbirkorlar tashabbuslari asosida	Tashqi savdo nomenklaturasi va hajmlari tahlili va iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari belgilash asosida
Maqsadlar	Alohida korxonalarda: – ishlab chiqarishni tashkil qilish; – mahalliyashtirishni chuqurlashtirish.	Tarmoqlar va yirik korxonalarda: – kooperatsiyani rivojlantirish; – ishlab chiqarishni tashkil qilish; – mahalliyashtirishni chuqurlashtirish.
Yo‘nalishlar	Import o‘rmini bosish	Mahalliyashtirilgan mahsulotlarni eksportga yo‘naltirish


– O‘zbekistonda islohotlarning yangi davrida mahalliyashtirish hajmi 3,4 barobar oshishi bilan bir vaqtda, iqtisodiyotning mahalliyashtirish ko‘rsatkichi 69-74 foiz oralig‘ida saqlanmoqda. Buning asosiy omillari (1) investitsion faollik keskin oshishi (asosiy kapitalning yalpi jamg‘arilish ko‘rsatkichi 2010-2016 yillarda YaIM 27,4 foizidan 2017-2023 yillarda 35,1 foizigacha ko‘tarilgan), (2) xalqaro iqtisodiy munosabatlar jadal rivojlanishi, (3) xalqaro va hududiy ishlab chiqarish zanjirlarga kirib borish, (4) iqtisodiyotni liberallashtirish siyosati ta‘sirida 2017-2023 yillarda eksport hajmi 2,1 barobar va import hajmi 3,2 barobar oshishidir;

– mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 2004-2023 yillarda 13,2 barobar, xususan oxirgi 7 yilda 3,4 barobar ko‘payib, 7 trln.dollardan oshgan. Ayrim yillarda mahalliyashtirish sanoat o‘shishining 12-15 foiz, eksportning 15-25 foiz qismini ta‘minlagan.

⁴⁷ Muallif tomonidan tayyorlandi.

Jadvalda ko‘rsatilgan tendensiyalar O‘zbekistonda asosan chapdan o‘ngga qarab o‘zgarayotgan bo‘lsa, ko‘pchilik mamlakatlarda teskari tendensiyalar ham kuzatilmoqda. Jumladan, 2022 yilning yakuniga kelib, odatda eng ilg‘or bozor mexanizmlari qo‘llashni afzal ko‘radigan Birlashgan Arab Amirliklarida ayrim oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini “qo‘lda” boshqarish mexanizmi kiritildi, Xitoy va Rossiya kabi avval eksportga urg‘u bergan davlatlarda eksportni rag‘batlantirish o‘rniga ko‘proq import o‘rnini bosish va ichki bozorga tayanishga e‘tibor qaratila boshladi, Hindiston, Xitoy, ko‘plab Yevropa mamlakatlarida davlat xaridlari orqali farmasevtikani rivojlantirish choralari ko‘rilayotganini kuzatishimiz mumkin.

O‘zbekistonda mahalliyashtirishning qonunchilik asoslari 1998 yildan shakllantirila boshlangan va o‘tgan davrda sohaga oid 70 ga yaqin ixtisoslashgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, mazkur munosabatlar 120 dan ortiq xalqaro ko‘p tomonlama va ikki tomonlama kelishuvlar orqali tartibga solinadi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasiga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning turkumlanishi ⁴⁸

⁴⁸ Me‘yoriy huquqiy hujjatlar tahlili asosida Muallif tomonidan tayyorlandi

O‘zbekiston Jahon savdo tashkilotiga (bundan keyin - JST) a‘zo bo‘lish va ko‘p tomonlama savdo tizimi sohasidagi ishlarni ham faol davom ettirmoqda. JSTning 60 ta bitimlari keng doirada xalqaro savdo va savdo siyosatining asosiy huquqiy normalari hisoblanadi⁴⁹ va davlatlararo qulay halqaro huquqiy tizimni yaratish bilan bir qatorda, davlatlar zimmasiga o‘z savdo siyosatlarini kelishilgan me‘zonlarda olib borish mas‘uliyatini yuklaydi. Bitimlarning “maqsadi jahon bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishda tovarlar va xizmatlar ishlab chiquvchilarga, eksporter va importerlarga ko‘mak berishdir”⁵⁰.

Hozirgi kunda “jahondagi davlatlarning 164 tasi JST ga a‘zo bo‘lib, jahon tovar aylanmasining 98 foizi uning ulushiga to‘g‘ri kelgan, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining 97 foizi JSTga a‘zo mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda”⁵¹.

O‘tgan davrda qonunchilik bazasini yaratish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilgan, biroq hozirda yuzaga kelayotgan iqtisodiy-siyosiy sharoit va oldimizda turgan vazifalardan kelib chiqib, qonunchilikni yanada takomillashtirish bo‘yicha 6 ta takliflar ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston ko‘rsatkichlari tahlili iqtisodiyotning mahalliyashtirish darajasi dinamikasining turli bosqichlarda o‘zgaruvchan bo‘lganini ko‘rsatdi: 2000-yillarda 78,3 foizdan 59,3 foizga pasayish, 2009 yildan boshlab mahalliyashtirish siyosati faollashgani natijasida o‘shish va 2017–2018 yillarda eng yuqori 84,8 foizga yetish, keyingi yillarda liberallashtirish, investitsion faollikning oshishi va qisman pandemiya ta‘sirida ma‘lum pasayish (2023 yilda - 69,6 foiz) kuzatilgan. Kuzatilayotgan o‘zgaruvchanlik mahalliyashtirishga yondashuvlarning beqarorligini ko‘rsatadi, ya‘ni strategik yondashuvlar o‘rniga qisqa muddatli chora-tadbirlar amalga oshirilgan (1.3-jadvalga qarang).

Mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiya siyosati iqtisodiyotning barcha darajalarida – milliy, hududiy va korporativ darajalarda – strategik muvofiqlashtirilmasa, to‘liq samara bermaydi. Barqaror strategiyalarni shakllantirish texnologik rivojlanish, sanoatlashuv va raqamli transformatsiya ustuvor yo‘nalishlarini uyg‘unlashtirgan tizimli yondashuvni talab etadi.

S. Sh. Mirziyoeva ta‘kidlaganidek: «Hududiy strategiyalar, bir tomondan, global, xalqaro, hududiy va milliy kontekstga uyg‘un ravishda mos kelishi, ikkinchi tomondan esa uzoq, o‘rta va qisqa muddatli tarmoqlararo va hududiy dasturlar hamda korporativ, hatto shaxsiy strategiyalar yo‘nalishlarini muvofiqlashtirish uchun poydevor vazifasini bajarishi lozim»⁵². Mazkur nuqtai nazar zamonaviy strategik boshqaruvning asosiy tendensiyalarini ifodalaydi — ya‘ni global va milliy ustuvorliklarni hududiy salohiyat va biznes tashabbuslari bilan uyg‘unlashtirish. Mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasi

⁴⁹ <https://www.un.org/ru/wto/>

⁵⁰ «Торговля в будущее. Всемирная Торговая Организация». Секретариат ВТО, 1999.

⁵¹ Т.Пардаев, С.Саломов, “Ўзбекистон Республикасини Жаҳон савдо ташкilotига аъзо бўлишининг афзалликлари ва истиқболлари” (<https://customs.uz/uz/news/view/6545>).

⁵² Мирзиёева С. Ш. Совершенствование методологии разработки и реализации региональных социально-экономических стратегий: автореферат диссертации. — Москва, 2021

jarayonlari kontekstida bu milliy va tarmoq dasturlarini hududiy ustuvor yo‘nalishlar bilan muvofiqlashtirish zaruratini anglatadi.

Bu esa quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

– qo‘shilgan qiymat zanjirlari va sanoat klasterlarini shakllantirish uchun resurslarni samarali yo‘naltirish;

– institutsional barqarorlik va qo‘llab-quvvatlash choralarining izchilligini ta‘minlash;

– intellektual rejalashtirishdan, mahalliyashtirish loyihalari samaradorligini monitoring qilishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda raqamli texnologiyalar salohiyatidan faol foydalanish.

Shu tariqa, hududiy strategiyalar davlatning sanoat siyosati chora-tadbirlari bilan mahalliyashtirish loyihalarining amaliy ijrosi o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida namoyon bo‘ladi va texnologik yangilanish hamda barqaror iqtisodiy o‘sish uchun mustahkam asos yaratadi.

1.3-jadval

Mahalliyashtirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari⁵³

Ko‘rsatkichlar	1991	2000	2005	2010	2015	2017	2018	2019	2020	2023
1. Iqtisodiyotning mahalliyashtirish darajasi (<i>yalpi iste‘molda mahalliy mahsulotlar ulushi</i>)	63,7	78,3	63,9	75,5	84,3	78,9	69,3	70,3	73,5	69,6
2. Mahalliyashtirish loyihalari soni (<i>birlik</i>)	218	1069	696	799	714	839	1427	2003
3. Korxonalar soni (<i>birlik</i>)	141	389	318	343	297	340	680	988
4. Mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi (<i>amaldagi narxlarda, mlrd.so‘m</i>)	1012	5727	4007	9861	14999	21751	15335	82800
5. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda mahalliyashtirish-ning ulushi (<i>foiz</i>)	9,2	15,0	4,1	6,6	6,4	6,7	4,2	12,6
6. Sanoat mahsulotlari o‘shida mahalliyashtirishning hissasi (<i>foiz</i>)	12,7	6,4	1,6	-0,4	-0,1	0,7	-2,0	2,4

O‘zbekistonda 2005-2023 yillarda mahalliyashtirish choralari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘rta hisobda qo‘shimcha 3,3 foizga va eksport hajmini qo‘shimcha 4,2 foizga o‘shirishiga sabab bo‘lgan. Tashqi savdo aylanmasiga ijobiy ta‘siri esa o‘rta hisobda 10,4 foizni tashkil qilgan (1.4-jadvalga qarang).

⁵³ Muallif tomonidan Jahon bankining Jahon rivojlanish ko‘rsatkichlari asosida tayyorlangan (<https://databank.worldbank.org/source/world-development-indicators#>).

Mahalliyashtirishning tashqi iqtisodiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar		2005	2010	2015	2017	2018	2019	2020	2023
1.	Mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksporti (mln.doll.)	361	627	86	512	458	550	193	674
2.	Sanoat mahsulotlari eksportda mahalliyashtirishning ulushi (foiz)	6,7	4,8	0,7	4,1	3,3	3,1	1,3	2,7
3.	Tashqi savdo balansi (mln.doll.)	1318	3848	91	-1459	-5449	-6834	-6051	-13790
4.	Mahalliyashtirishning import o'rini bosish samaradorligi (mln.doll.)	904	3607	1557	1918	1859	2457	1524	7052
5.	Mahalliyashtirish ta'sirini inobatga olmagan tashqi savdo balansi (mln.doll.)	413	241	-1466	-3377	-7307	-9291	-7575	-20842

O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish masalalari alohida yo'nalish sifatida 2008 yildan, bu borada raqamli texnologiyalarni qo'llash 2010 yildan, sanoat klasterlarini rivojlantirish masalalari 2017 yildan boshlab qabul qilingan qonunchilik hujjatlarida o'z aksini topa boshlagan va bugungi kunga kelib yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.


Shu bois, tarmoqlarda sanoat kooperatsiyasining 6 ta shakli, 6 ta turi va 5 ta yo'nalishlarining O'zbekistonda qo'llash ko'lami va ularni kengaytirish imkoniyatlari o'rganib chiqilgan.

Hamkorlik turidan kelib chiqib, sanoat kooperatsiyasi ichki tarmoq (*bir tarmoqqa oid tashkilotlar orasida*), tarmoqlararo (*turli tarmoqlarga oid tashkilotlar orasida*), xalqaro (*turli mamlakatlarda joylashgan tashkilotlar orasida*), buyumbay (*butlovchi qism, detal yoki agregatlarni ishlab chiqarish orqali hamkorlik*), texnologik (*texnologik jarayonlarni turli korxonalarda tashkil qilish*), jarayonbay (*ishlab chiqarish, yetkazib berish, sotish va xizmat ko'rsatish jarayonlarni turli tashkilotlar tomonidan tashkil qilinishi*) hamkorlik ko'rinishida tashkil etilishi mumkin. Bunda kooperatsiya aloqalarining huquqiy asosi oldi-sotdi shartnomalari, xizmat ko'rsatish shartnomasi, hamkorlik kelishuvi yoki boshqa shartnoma asosida tashkil etiladi.

O'zbekistonda qurilish sohasida subpudratchilik, metallurgiya, neftgaz va boshqa sanoat sohaslarida tolling usullari ko'p yillardan buyon qo'llanib kelinib, ko'pchilikka tanish tushuncha bo'lsa, kooperatsiyaning boshqa turlari amaliyotga oxirgi yillarda kirib kelmoqda. Xususan, qishloq xo'jaligi, ipakchilik, meva-sabzavotchilik, qurilish materiallari sohaslarida sanoat ishlab chiqarish klasterlari tashkil qilinmoqda, maktab o'quvchilarini ovqatlantirish, ayrim hududlarda ijtimoiy ob'ektlarni isitish tizimlarini tashkil qilishda autsorsing usuli qo'llanilmoqda, franchayzing usullari esa asosan maktabdan tashqari ta'lim, chakana savdo va ovqatlanish, donali ovqatlar savdosi yo'nalishlarida joriy etilmoqda.

Ushbu bobda tarmoqlarda kooperatsiya jarayonlari tahlilini xalqaro ishlab chiqarish zanjiriga integratsiyalashgan avtomobilsozlik tarmog‘i (2024 yilda yalpi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 11,3 foiz) va O‘zbekiston iqtisodiyotining eng yirik tarmog‘i bo‘lgan tog‘-kon sanoati (21,5 foiz) misolida ko‘rib chiqilgan.

Ta’kidlanishicha, faqat import butlovchi qismlardan yirik uzelli yig‘ish asosida mahsulot ishlab chiqarish iqtisodiyot uchun juda kam samaraga ega, shuningdek, avtomobilsozlikda proteksionizm siyosatini uzluksiz davom ettirish mavjud salohiyatni ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qilishi tayin. Shu nuqtai nazardan, A.Gamiltonning ta’biri bilan aytganda davlatlar o‘zining “go‘dak tarmoqlar”ini raqobatdan himoya qilishi va xorijiy kontragentlar bilan teng raqobat qilish darajasiga yetgunicha ehtiyot qilishi zarur. Bunda, “go‘dak tarmoqlar”ning rivojlanishi hisobiga iqtisodiyotga qo‘shiladigan hissasi bojxona bojlari hisobiga tovarlar narxi oshishi natijasidagi yo‘qotishlarni bir necha barobar qoplaydi. Shu bilan birga, F.Listning proteksionizm nazariyasida ta’kidlanganidek tarmoq oyoqqa turgan davrdan boshlab, proteksionizmning vazifa yakunlangan deb hisoblanishi va bojlarni olib tashlash zarur (3-rasmga qarang).



3-rasm. O‘zbekiston, Hindiston, Xitoy va Turkiyada avtomobilsozlik tarmog‘ining rivojlanish bosqichlari va tashqi savdo siyosatining o‘zgarishi⁵⁴

“Go‘dak tarmoqlar” konsepsiyasi doirasida proteksionizm siyosati uzoq muddat o‘zgartirilmasdan davom etadigan bo‘lsa, tarmoq rivojlanishi sekinlashishiga olib keladi. Bundan tashqari, O‘zbekiston avtomobilsozlik tarmog‘i misolida ko‘rib turganimizdek, “yuqori bojxona to‘siqlari bo‘lgan taqdirda iste’molchilar, odatda, mahalliy avtomobil sotib olishda ortiqcha mablag‘ sarflashiga va samarasiz ishlab chiqaruvchi – monopolist yukini ko‘tarishga majbur bo‘lishadi”⁵⁵.

⁵⁴ Muallif tomonidan tayyorlandi.

⁵⁵ Таджиев С., “Business history of the Uzbek car industry since 1991”, диссертационная работа на соискание ученой степени PhD in Economics в Graduate School of Economics, Osaka University, 2021, стр.67-68.

Muallifning fikricha, O‘zbekiston sharoitida, avval boshdanoq sanoat kooperatsiya asosida avtomobil butlovchi qismlarini o‘zlashtirishga kirishilishi hamda hozirgi davrdagi liberalizatsiya iqtisodiyotda yangi sanoat kooperatsiya klasteri rivojlanishi hisobiga o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda. Bugungi kunda, O‘zbekistonda 3 ta yirik yengil avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan birgalikda avtomobil sanoatida 26 ta yirik korxonalar va 300 dan ortiq hududiy o‘rta korxonalar barpo etilgan.

O‘zbekiston tog‘-kon sanoati ikkita yirik sanoat korxonasi Navoiy va Olmaliq kon-metallurgiya kombinatlari va ularga xizmat ko‘rsatuvchi va mahsulot yetkazib beruvchi bir qator korxonalardan iborat.

NKMKda 2020 yildan kichik korxonalar bilan kooperatsiya bo‘yicha yangi tizim joriy qilina boshlangan. Bu tizim doirasida bir nechta butlovchi qism yetkazib beruvchi korxonalar NKMK tomonidan “shatakka” olingan va ularga import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar parametrlarini va o‘zlashtiriladigan mahsulotlar sifatini talab darajasigacha yetkazish, konstruktorlik va texnologik ishlarni kuzatib borishda ko‘maklashish yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu mexanizmni amalga oshirish hisobiga, 2020-2021 yillarda import hajmi 156 mln. dollarga maqbullashtirilib, mahalliy mahsulotga o‘tilgan. Birinchi bosqichda “shatakka” olingan 17 ta kichik korxonalar 2 yil ichida o‘rta sanoat korxonalariga aylangan, ularning ishlab chiqarish hajmlari o‘rtacha 10 barobarga, mahsulot turlari 23 barobarga va ishchi-xodimlari soni 4 barobarga ko‘paygan. Kichik korxonalar bilan hamkorlikning yana bir ijobiy natijasi, Navoiy mashinasozlik zavodi quvvatlarida ishlab chiqarib turgan sodda butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni hamkor korxonalariga transfer qilish (o‘tkazish) hisobiga o‘z quvvatlarini bo‘shatib, nisbatan murakkab va yuqori qiymatli mahsulotlarni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lgan.

OKMKda asosiy faoliyat uchun import hajmini maqbullashtirish, mahalliy korxonalar bilan sanoat kooperatsiyasini kengaytirish va 50 ga yaqin mahalliy korxonalarni “shatakka” olish asosida kooperatsiyani rivojlantirish, yirik investitsiya loyihalarining importga bog‘liqligi va valyuta sarfini kamaytirish yo‘nalishlarida har bir yirik loyihasi bo‘yicha ish olib borilmoqda. Bunday yondashuvlarning iqtisodiy samarasi A.Xirshman tomonidan o‘rganilgan⁵⁶, u ilmiy nazariyaga sanoat tarmoqlari o‘rtasida "orqaga va oldinga aloqalar" (Backward and Forward Linkages) tushunchasini kiritgan. Bunda, “orqaga aloqalar” tarmoqlar uchun resurs, xom ashyo va uskunalar yetkazib beruvchilarning rivojlanishini, “oldinga aloqalar” tarmoqda ishlab chiqilgan mahsulotlardan foydalanishni ko‘paytirishni rag‘batlantirish orqali multiplikator samarasi hisobiga iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkinligini ta’kidlagan.

2024 yilda xalqaro miqyosda o‘tkazilgan so‘rovlarda aniqlanishicha “mahalliyashtirish bo‘yicha ozgina sa’y-harakatlar ham katta foyda keltirishi mumkin”⁵⁷, kompaniyalarning 82 foizi mahalliyashtirish hisobiga barqarorlik

⁵⁶ Hirschman, Albert O. The Strategy of Economic Development. New Haven, CT: Yale University Press, 1958.

⁵⁷ PricewaterhouseCoopers, Massachusetts Institute of Technology, “Localising supply chains and its impact on performance”, 2024 (<https://www.pwc.com/m1/en/publications/documents/2024/localising-supply-chains-and-its-impact-on-performance.pdf>)

yaxshilangani, 77 foizi xarajatlarni kamaytirishga erishgani, 76 foizi moslashuvchanlik va 71 foizi samaradorlik oshganini ta'kidlagan. Shu bilan birga, haddan tashqari mahalliyashtirish, xarajatlar oshirish va barqarorlik kamayishi kabi salbiy natijalar olib kelishi mumkinligi to'g'risida xulosa qilingan.

Dissertatsiya ishida ilgari surilayotgan g'oyalarning amalda qo'llash bo'yicha NKMKda va OKMKda aprotatsiyadan o'tkazilib, ijobiy natijalarini bergan mexanizmlarni barcha sanoat tarmoqlari va yirik korxonalarda shaffof raqamli texnologiyalar asosida joriy qilinishi kooperatsiyani rivojlantirishda asosiy yo'nalishlardan bo'lishi shubhasiz.

Raqamli texnologiyalarni qo'llash samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratish tavsiya qilingan:

– davlat xaridlari tizimida mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashda raqamli texnologiyalarni jadal rivojlantirish;

– sanoat kooperatsiyasiga ko'maklashish xizmatlari ko'rsatuvchi xususiy professional korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash;

– sanoat quvvatlari to'g'risida ma'lumotlarni jamlash va qidirish imkoniyatini beruvchi xususiy loyihalar uchun qonunchilik bazasini shakllantirish va ularni rag'batlantirish;

– buyurtmalar portfelini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali korxonalariga quvvatlardan foydalanish va faoliyatini rejalashtirish imkoniyatini yaratish.

Dissertatsiyaning **“O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi va mahalliyashtirish jarayonlari istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning istiqbollari, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish va yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishda mahalliyashtirishning ustuvor yo'nalishlari hamda mahalliyashtirishni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilinib, o'zaro manfaatli va tabiiy iqtisodiy munosabat sifatida o'rganilgan hamda tomonlar maqsadlariga erishishlarida qo'l keladigan tavsiyalar, samarali iqtisodiy usul va mexanizmlar taklif qilingan.

Ishlab chiqilgan yondashuvlar, mexanizmlar, uslubiyot va xorijiy tajriba tahlili asosida 2030 yilgacha ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishning prognoz parametrlari shakllantirilgan. Bunda:

– 2030 yilga qadar investitsiya loyihalari doirasida “mahalliy kontent” ulushini 42 foizga yetkazish;

– 2025-2027 yillarda yillik ishlab chiqarish hajmi 100 trln so'mdan ortiq bo'lgan mahalliyashtirish loyihalarini amalga oshirish;

– yirik tarmoq korxonalarini tomonidan sanoat kooperatsiyasi doirasida mahalliy ishlab chiqaruvchilardan mahsulotlarni xarid qilish nazarda tutilgan (1.5–jadvalga qarang).

1.5-jadval

2030 yilgacha mahalliy lashtirish va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishning prognoz parametrlari

№	Asosiy ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2025 yil (kutilish)	2026 yil (prognoz)	2027 yil (prognoz)	2028 yil (prognoz)	2029 yil (prognoz)	2030 yil (prognoz)
1	Mahalliy lashtirish loyihalari	loyihalar soni	1 905	1 808	1 827	1 910	1 985	2 100
		trln.so'm	88	93	100	108	115	125
2	Investitsiya loyihalarida "mahalliy kontent" ulushi	foiz	32,0	34,3	36,5	38,7	40,1	42,0
3	Sanoat kooperatsiyasini kengaytirish	trln.so'm	28	30	32	35	38	41

O'zbekistonda mahalliy lashtirish va sanoat kooperatsiyasini institutsional asoslarini rivojlantirish maqsadida ilg'or xorijiy tajriba asosida bu boradagi davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish, sohaga mas'ul bo'lgan yagona davlat organini belgilash hamda barcha darajadagi rahbar xodimlarning samaradorlik ko'rsatkichlari sifatida (1) ishlab chiqarishda import ulushini kamaytirish, (2) "mahalliy kontent" ulushini oshirish. (3) ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan ta'minlanganlik darajasini oshirishni kiritish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish, bunda "Sanoat kooperatsiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonunini ishlab chiqish, "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida", "Davlat xaridlari to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlarini mahalliy sanoatni qo'llab-quvvatlash bo'yicha normalarni kiritish orqali takomillashtirish hamda ularni qo'llashning amaliy mexanizmlari samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar shakllantirilgan.

Soha, tarmoq va xo'jalik birlashmalarida (uyushmalarda) "qo'shilgan qiymat xaritasi" metodini qo'llash orqali tarmoq faoliyatida asosiy e'tiborni zaif zanjirlarni rivojlantirishga qaratish hamda mahalliy lashtirish va kooperatsiya siyosatining to'rtta ustuvor yo'nalishlari tavsiya etilgan.

Birinci yo'nalish, yirik investitsiya loyihalarida "mahalliy kontent" ulushini oshirish:

a) yirik hajmda xarid qilinadigan mahsulotlarni investitsiya loyihasi amalga oshiriladigan maydonga yaqin hududlarda ishlab chiqarish. Misol uchun, Olmaliq shahrida barpo etilayotgan "MOF-3" loyihasi, Qorako'l tumanida amalga oshirilayotgan "MTO" loyihalari doirasida metall konstruksiyalarni qurilish maydonchasida ishlab chiqarish orqali metall konstruksiyalar qiymatini 7 foizga kamaytirishga erishilgan;

b) zarur butlovchi qismlar va xomashyo ishlab chiqarishni asosiy loyiha bilan bir vaqtda amalga oshirish. Misol uchun, Asaka tumanida "Treker" va "Oniks" avtomobillarni ishlab chiqarish loyihasi bilan bir vaqtda ular uchun butlovchi qismlar ishlab chiqarish quvvatlar yaratilgani hisobiga, boshidan 30 foizdan ortiq mahalliy lashtirish darajasi ta'minlangan. Bu – har bir ishlab chiqarilgan avtomobil qiymatidan 5-7 ming dollarlik xorijiy valyuta iqtisod qilinadi degani.

v) ishlab chiqarish ko'zda tutilgan xomashyo va komponentlarni qayta ishlash bo'yicha quvvatlarni asosiy loyiha bilan bir vaqtda boshlash. Misol uchun, Navoiyda PVX ishlab chiqarish loyihasi doirasida ishlab chiqarilgan polimer xomashyoni qayta ishlash quvvatlaridan foydalanish darajasi pastligicha qolmoqda, bundan xulosa qilib, Qorako'lda yaratilayotgan loyiha doirasida ishlab chiqariladigan 1 100 ming tonna 6 turdagi polimerlarni qayta ishlash bo'yicha loyihalar ishlab chiqilib, ushbu iste'molchilarga zarur bo'lgan polimer markalarni o'zlashtirish bo'yicha tegishli choralar ko'rilmogda.

Ikkinchi yo'nalish, joriy faoliyat uchun importi tarkibini maqbullashtirish. Bu ishlarni tarmoq darajasida tahlil qilish zaruriyati ayrim mahsulotlar bo'yicha bir korxonalar talabi uni mahalliyashtirish uchun yetarli hajmni tashkil qilmasligi, tarmoq darajasida loyihaning iqtisodiy ko'rsatkichlari masshtab iqtisodi hisobiga ijobiy bo'lishi bilan asoslanadi.

Uchinchi yo'nalish, importga bog'liqlikni kamaytirish orqali korxonalar faoliyatining uzluksizligini ta'minlash va raqobatbardoshlikni oshirish.

Ichki bozorning mahalliy mahsulotlar bilan ta'minlanganlik darajasi 90-95 foiz atrofida bo'lishi hozirgi davrda maqbul ko'rsatkich hisoblanadi. Buning sababi, global axborot almashinuvi va tashqi savdoni erkinlashtirish sharoitida iste'molchilarda turli sifat darajali va brendli mahsulotlarga talab yuzaga kelishi va uni qondirilishi tabiiy holat.

a) mahalliy ishlab chiqaruvchilarning quvvatlari yetarli bo'lganda, mahalliy ishlab chiqaruvchilar imkoniyatlarini bozor segmentlari bo'yicha tahlil qilish, mahsulotlar sifatini talab darajasiga yetkazish, narx bo'yicha raqobatbardoshlikni oshirishga ko'maklashish, ichki bozorni himoya qilish choralari ko'rish;

b) quvvatlar yetarli bo'lmaganda, mahalliy korxonalar bilan birgalikda mavjud quvvatlarini kengaytirish bo'yicha choralarni ishlab chiqib ularni amalga oshirishni rag'batlantirish;

v) quvvatlar umuman bo'lmagan hollarda, ko'rib chiqilgan tenglama va formulalar asosida tahlillarning ijobiy natijalariga tayangan holda ushbu mahsulotni mahalliyashtirish uchun xorijiy investor va texnologiyalarni jalb qilish choralari ko'rish tavsiya etilgan.

Shuningdek, ijobiy natijalarga erishgan rahbarlarni rag'batlantirish, salbiy ko'rsatkichlar kuzatilayotgan tarmoq va hududlarda yuzaga kelgan holat va ularning sabablarini chuqur tahlil qilib, zarur qo'shimcha choralarni amalga oshirib borish bo'yicha rag'batlantirish mexanizmi ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda bojxona bojlari stavkasini shakllantirishda nominal stavka bilan bir qatorda, samarali bojxona himoya stavkasini majburiy tarzda hisoblash va bojlarning iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qilib borish mexanizmlarini joriy qilish hamda mamlakatning nisbiy ustunliklari tahlili asosida, investitsiyalarni rag'batlantirish mexanizmlaridan foydalangan holda mahalliy sanoatni rivojlantirishni manzilli rag'batlantirish choralari ishlab chiqish tavsiya etilgan.

XULOSA

1. Ilmiy-nazariy yondashuvlarni tahlil qilish, jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan asosiy tendensiyalar, mahalliy va ilg'or xorijiy tajriba tahlili asosida milliy amaliyotda qo'llash uchun quyidagi xulosalar qilingan:

– mahalliyashtirish va kooperatsiya iqtisodiy asoslangan bo'lishi muhim, ya'ni asosiy tamoyil – mahalliyashtirilgan mahsulot importdan arzon bo'lishi shart. Faqat strategik rivojlanish, iqtisodiy xavfsizlik uchun muhim mahsulot va butlovchi qismlarni mahalliyashtirishda ushbu tamoyildan chekinishga yo'l qo'yish mumkin;

– uzoq muddatli mahalliyashtirish va kooperatsiya strategiyasini ishlab chiqish va iqtisodiyotning mahalliyashtirish darajasini o'rta va yuqori daromadli mamlakatlar ko'rsatkichlariga 77-80 foiz olib chiqishni maqsad qilib olish. Strategiya doirasida importga bog'liqlik darajasi va eksport salohiyati yuqori bo'lgan drayver sohalari (avtomobilsozlik, elektrotexnika va elektronika, farmasevtika, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati) hamda yuqori investitsiya salohiyatiga ega bo'lgan iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari (energetika, tog'-kon sanoati, neft-gaz) bo'yicha uzoq muddatli dasturlarni qabul qilish;

– faqat ichki bozorga tayanib barqaror rivojlanish bo'lmagandek, faqat eksport bozorlariga tayanishning ham xavflari mavjud. Ichki bozor eksport bozorlarini zabt etishning poydevori va uni ustuvor ravishda rivojlantirib borish mahalliyashtirish siyosatining samarasini oshiradi;

– xorijiy investitsiyalar va ilg'or xorijiy texnologiyalar transferi uchun qulay investitsiya muhiti va barqaror sharoitlarni yaratish zarur. Deyarli barcha investitsiya loyihalari doirasida o'zlashtiriladigan mahsulotlar – bu mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasi uchun yangi imkoniyat.

2. Mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasining samaradorligini baholash uslubiyoti takomillashtirilgan. Taklif etilgan yondashuv mahalliyashtirishning iqtisodiy samarasini yanada ob'ektiv hisobga olish imkonini beruvchi ko'rsatkichlar tizimini kengaytirishga asoslanadi. Xususan, uslubiyot “mahalliy va import buyurtmaning moliyaviy qiymati”, “ehtiyot zaxira saqlash xarajatlari”, “mahalliy mahsulotni o'zlashtirish xarajatlari”, “quvvatlardan foydalanishning muqobil imkoniyati”, “ehtimoliy yo'qotiladigan foyda”, “mahalliyashtirish hisobiga qo'shimcha olinadigan foyda” kabi ko'rsatkichlar bilan to'ldirilgan.

3. O'zbekistonda mahalliyashtirish va kooperatsiyani rivojlantirishning to'rta yo'nalishi bo'yicha quyidagi tavsiyalar asoslantirilgan: yirik investitsiya loyihalarida “mahalliy kontent” ulushini oshirish, korxonalarining joriy faoliyat uchun importini maqbullashtirish, importga bog'liqlikni kamaytirish orqali tarmoq korxonalarini faoliyatining uzluksizligini ta'minlash va raqobatbardoshlikni oshirish, ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan maqbul darajada to'yintirish.

4. Tog'-kon va avtomobilsozlik tarmoqlari tajribasi tahlili asosida sanoat kooperatsiyasini samarali rivojlantirishning quyidagi omil va mexanizmlarni shakllantirilgan: mahalliy nisbiy ustunliklar va eksport salohiyatini inobatga olgan holda, o'rta va uzoq muddatda rivojlantiriladigan sanoat tarmoqlari va mahsulotlarni belgilab olish, yirik sanoat korxonalarini atrofida kooperatsiya asosida ishlaydigan ishonchli

yetkazib beruvchi korxonalar klasterini shakllantirish, yirik korxonalarining an'anaviy sodda mahsulotlari ishlab chiqarishni kooperatsiya asosida kichik va o'rta korxonalariga o'tkazish, uzluksizlik ishlab chiqarish faoliyatini ta'minlash va texnologik mustaqillik (xavfsizlik) me'yorlaridan kelib chiqib, kooperatsiya zanjirlarining ko'proq qismini o'zlashtirish.

5. Xorijiy tajribalari tahlili hamda milliy salohiyatdan kelib chiqib, turli strategiyalarning ijobiy elementlarini birlashtirgan holda O'zbekistonda quyidagi turli modellarga amal qilinishi mumkinligi aniqlangan:

– xalqaro va mintaqaviy sanoat kooperatsiyasi, texnologiya almashinuvi orqali raqobatbardoshlikni oshirish (Vengriya, Germaniya, Janubiy Koreya);

– davlat xaridlari va soliq imtiyozlari orqali investitsiyalarni jalb qilish va mahalliy sanoatni rag'batlantirish (Vengriya, Hindiston, Saudiya Arabistoni);

– yuqori texnologiyali tarmoqlarni rivojlantirishda raqamlashtirish va to'rtinchi sanoat inqilobi texnologiyalariga sarmoya kiritish, ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash, axborot infratuzilmasi, aqlli fabrikalarni rivojlantirish (Germaniya, Janubiy Koreya, Xitoy, Yaponiya);

– O'zbekistonda ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarni rag'batlantirish, inson kapitalini rivojlantirish, ishchi kuchining malakasini oshirishni qo'llab-quvvatlashni davom ettirish (Yaponiya, Germaniya).

6. Ishlab chiqilgan yondashuvlar, mexanizmlar va uslubiyot asosida, xorijiy tajribaga tayangan holda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishning 2030 yilgacha prognoz parametrlari shakllantirilgan. Bunda, yirik investitsiya loyihalarida "mahalliy kontent" ulushini oshirish, yangi mahalliyashtirish loyihasini amalga oshirish, yirik tarmoq korxonalar va mahalliy ishlab chiqaruvchilar o'rtasida sanoat kooperatsiyasini kengaytirish nazarda tutilgan.

7. Mahalliyashtirish va tarmoqlararo kooperatsiyaning me'yoriy va institutsional asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida:

qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish, xususan mahalliy ishlab chiqaruvchilarga davlat xaridlarida ishtirok etishda ustuvorlik berish, "ofteyk shartnoma"lar tuzish, "B2B" va "B2C" formatida "marketpleys" shaklidagi erkin savdo maydonchasini tashkil etish, yirik investitsiya loyihalarida mahalliyashtirish majburiyatlarini joriy qilish bo'yicha normalarni kiritish borasidagi takliflar;

sohaga mas'ul bo'lgan yagona davlat organini belgilash hamda barcha darajadagi rahbar xodimlarning samaradorlik ko'rsatkichlari sifatida ishlab chiqarishda import ulushini kamaytirish, "mahalliy kontent" ulushini oshirish. ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan ta'minlanganlik darajasini oshirishni kiritish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

8. Sohani rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni qo'llashning istiqbollari davlat xaridlari tizimi va ofteyk shartnoma"lar tuzish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish orqali inson omilini cheklash, sanoat korxonalar yagona reestrini yaratish, "B2B" va "B2C" formatida "marketpleys" shaklidagi raqamli savdo maydonchalarini rivojlantirish hamda bu yo'nalishlarda xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflar shakllantirilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.14/30.12.2019.I.84.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ
МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
ПРИ КАБИНЕТЕ МИНИСТРОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**ИНСТИТУТ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ
ИССЛЕДОВАНИЙ**

РАХМАТОВ ФЕРУЗ КАСЫМОВИЧ

**ПЕРСПЕКТИВЫ РАСШИРЕНИЯ ПРОЦЕССОВ
ЛОКАЛИЗАЦИИ И МЕЖОТРАСЛЕВОЙ КООПЕРАЦИИ**

**на стыке специальностей 08.00.02-«Макроэкономика»
и 08.00.03-«Экономика промышленности»**

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Ташкент – 2025 год

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Кабинете Министров Республики Узбекистан В2022.1.PhD/Iqt1965.

Докторская Диссертация выполнена в Институте макроэкономических и региональных исследований

Авторефераты диссертаций на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (www.imrs.uz) и информационно-образовательном портале "Ziynet" (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Олимжонов Одил Олимович,
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: Махмудов Носир Махмудович,
доктор экономических наук, профессор
Нуралиев Рустам Тургунович,
кандидат экономических наук, доцент

Ведущая организация: Национальный университет Узбекистана
имени Мирзо Улугбека

Защита диссертации состоится 26 11 2025 года в 14:30 на заседании Научного совета Dsc.14/30.12.2019.I.84.01 при Институте макроэкономических и региональных исследований при Кабинете Министров Республики Узбекистан (Адрес: 100011, город Ташкент, массив Хадра, дом 33А, тел: +998 71 244-01-80, факс: +998 71 244-01-17, e-mail: info@imrs.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института макроэкономических и региональных исследований при Кабинете Министров Республики Узбекистан (регистрационный № 5). Адрес: 100011, город Ташкент, массив Хадра, дом 33А, тел: +998 71 244-01-80, факс: +998 71 244-01-17, e-mail: info@imrs.uz.

Авторефераты диссертации разосланы «__» _____ 2025 года
(реестр протокола рассылки № __ от «__» _____ 2025 года)



Т.М.Ахмедов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

М.М.Каримов
Научный секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.э.н (PhD),
доцент

Х.О.Сайдалиев
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н. (DSc),
доцент

Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. На современном этапе, в условиях обострения «торговых войн», нестабильности экономической конъюнктуры, а также сбоях в глобальных производственных и логистических цепочках, значительно возрастает актуальность развития процессов локализации и промышленной кооперации. Усиление стремления государств к развитию национальных экономик и повышение уровня благосостояния населения, технологическому превосходству, расширению ресурсной базы и зоны экономического влияния обусловило активизацию локализационных мер. В период 2008–2024 годов странами мира реализовано в совокупности около 68 тысяч мер подобного характера

¹, «с момента саммита G20, прошедшего в Риме в 2021 году, странами «большой двадцатки» были введены ограничения на торговлю, затрагивающие товары на сумму 1,85 триллиона долларов США»².

В связи с этим неуклонно расширяются масштабы исследований, проводимых крупными зарубежными научными центрами и учёными, посвящённых проблематике локализации и промышленной кооперации и данные вопросы становятся объектом всестороннего изучения. В частности, особое внимание уделяется формированию дополнительных источников дохода посредством локализации, производству конкурентоспособной продукции при эффективном использовании местных сырьевых ресурсов, оценке уровня локализации через расширение промышленной кооперации, разработке стратегий импортозамещения, а также выявлению влияния локализации на макроэкономическую стабильность.

В нашей стране также предпринимаются определённые шаги в данном направлении. В частности, в Стратегии «Узбекистан — 2030»³ в качестве приоритетных задач особо отмечено развитие промышленной кооперации между крупными отраслями и региональными предприятиями, повышение уровня локализации и обеспечение внутреннего рынка местной продукцией. В связи с этим становится актуальной разработка научно обоснованных мер по дальнейшему расширению реформ, направленных на развитие локализации и межотраслевой кооперации, что позволит обеспечить макроэкономическую стабильность и экономическую безопасность страны, снизить дефицит внешнеторгового баланса и эффективно использовать имеющийся экономический потенциал.

Настоящая диссертационная работа в определённой степени будет способствовать реализации задач, определенных в нормативно-правовых актах, в частности: Указе Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № ПФ-158 «О Стратегии развития Узбекистан – 2030», постановлении Президента Республики Узбекистан от 12 декабря 2024 года № ПП-417 «О дополнительных мерах по поддержке производителей и созданию для них широких возможностей

¹ Данные системы Global Trade Alert (<https://www.globaltradealert.org/>).

² G20 Trade Policy Factbook 2024, Global Trade Alert, 14.11.2024

³ Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года №УП-158-сон “О стратегии развития Узбекистан-2030” (<https://lex.uz/docs/6600413>).

в государственных закупках», от 21 января 2025 года № ПП-12 «О мерах по обеспечению занятости населения и сокращению бедности в 2025 году», а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики – I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. В экономической теории вопросы «импортозамещения», «протекционизма», «локализации» и «кооперации» изучены рядом зарубежных и отечественных учёных. В частности, основные теоретические положения разработаны такими известными зарубежными экономистами, как представители меркантилистской теории Т. Манн, А. Серра, А. де Монкретьен, сторонники свободной международной торговли А. Смит и Д. Рикардо, а также А. Гамильтон, Ф. Лист, Х. В. Зингер, Р. Пребиш, М. Эдисон, П. Байрох и А. Хиршман и др.

В настоящее время данные вопросы находят своё отражение в научных исследованиях зарубежных учёных. В частности, Жозе А. Дотас-Панеро⁴ изучает применение стратегии импортозамещения в развивающихся странах, Д. А. Ирвин⁵ – подъем и спад политики импортозамещения, Ф. М. Велосо^{7 8 9} рассматривает локализацию в автомобилестроении, влияние предпочтений, инфраструктуры и институтов на развитие, эффективность импорта и трансфера технологий. Ч. Гор¹⁰ и В. Попов¹¹ анализируют вопросы государственного управления в данной сфере, а П. Кругман¹² – развитие анализа реформ.

В работах узбекских экономистов отдельные аспекты данной темы рассматриваются в контексте влияния локализации на национальную экономику, макроэкономическую стабильность, развитие регионов и внешнеторговый баланс, а также в рамках теории и практики экономической конкурентоспособности, роли локализации в нейтрализации негативного воздействия мирового финансового кризиса, обеспечения экономической безопасности и других направлений

⁴ Datas-Panero, Jose A. "Import Substitution." IMF Staff Papers, 2020, pp. 34–39.

⁵ Irwin, Douglas A. The Rise and Fall of Import Substitution. NBER Working Paper No. 27919, National Bureau of Economic Research, 2020 (<http://www.nber.org/papers/w27919>).

⁶ Ирвин, А.Д. (2002). Способствовало ли импортозамещение росту в конце XIX века? Национальное бюро экономических исследований, Кембридж, NBER Working Paper 8751. <https://www.nber.org/papers/w8751>

⁷ F.Veloso, R.Kumar, "The Automotive Supply Chain: Global Trends and Asian Perspectives", ERD Working Paper No. 3, Asian Development Bank, 2002.

⁸ Veloso, Francisco, and Jorge Mario Soto. Incentives, Infrastructure, and Institutions: Perspectives on Industrialization and Technical Change in Late-Developing Nations. Elsevier Science Inc, 2001.

⁹ Blalock, Garrick and Veloso, Francisco M. and Veloso, Francisco M., Imports, Productivity Growth, and Supply Chain Learning. World Development, Forthcoming (<https://ssrn.com/abstract=961509>).

¹⁰ Gore, Charles. "The Rise and Fall of the Washington Consensus as a Paradigm for Developing Countries." World Development, vol. 28, no. 5, 2000, pp. 789–804.

¹¹ Попов, Владимир. «Пекинский консенсус против Вашингтонского: Азиатские ценности более конкурентоспособны, чем либерализм?» Вопросы экономики, no. 5, 2011, pp. 23–42.

¹² Krugman, Paul R. "The Fall and Rise of Development Economics.", 1999

(О.О.Олимжонов¹³, Т.М.Ахмедов¹⁴, А.Ш.Бекмуродов¹⁵, Н.М.Махмудов¹⁶, Ш.Х.Назаров¹⁷, С.В.Чепель¹⁸, Н.М.Расулов¹⁹, Ҳ.О.Сайдалиев²⁰, Р.Т.Нуралиев²¹, Д.М.Курбонова²², Д.М.Каримова²³, Б.Б.Валиев²⁴).

Различные аспекты темы изучены рядом молодых учёных, так, Ш.И.Мустафакулов²⁵ рассматривал региональные аспекты локализации и промышленной кооперации, С.С.Усмонова²⁶ повышение уровня локализации в фармацевтической промышленности, Ж.Ш.Умурзаков²⁷ перспективы локализации в топливно-энергетической отрасли, О.Архипова²⁸ роль государственного управления в процессах локализации, Р.С.Арзибаева²⁹ вопросы кредитования локализации, М.К.Аллаёрова и У.Х.Абдуллаев³⁰ влияние отраслевых и региональных факторов на локализацию.

¹³ О.О.Олимжонов ва бошқалар, “Аграр иқтисодиётни эркинлаштиришнинг назарий асослари”, Тошкент, 2016 йил

¹⁴ Т.М.Ахмедов, “Перспективы развития экономического сотрудничества и «зеленого» перехода (промышленная кооперация, торговля, транспорт, энергетическая и продовольственная безопасность)”, Международная конференции аналитических центров стран-участниц СНГ

¹⁵ А.Ш.Бекмуродов ва бошқалар, “Ҷаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни барқарор этишнинг йўллари ва чоралари”, Тошкент, 2009 йил, 56-68в.

¹⁶ М.Н.Махмудов, Л.Азимова, Н.Авазов. “Ўзбекистонда макроиқтисодий барқарорлик ва инвестицион фаолликни ошириш масалалари”, *Iqtisodiyot va ta'lim* 1 (2021): 38-48.

¹⁷ Ш.Назаров, “Минтақавий иқтисодиёт ва бошқарув”, монография, Ренессанс, 2021 йил, 144-150в.

